

## 63 -sonli ShARTNOMA

2022-yil 5-yanvar

Jizzax shaxri

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Jizzax viloyat Bosh boshqarmasi**, keyingi o'rnlarda "Bank" deb yuritiladi, Nizom asosida ish yurituvchi Bosh boshqarma boshlig'i **S.X.Alishev** bir tomondan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki **Axborotlashtirish Bosh Markazi DUK Jizzax viloyat bo'limi**, keyingi o'rnlarda "**Ijarachi**" deb yuritiladi, Nizom asosida ish yurituvchi bo'lim boshlig'i **A.I.Umarov** ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

### 1.SHARTNOMANING PREDMETI.

1.1. Bank o'ziga tegishli bo'lgan binosidan 111,20-kv.m. hajmdagi xonalarni (topshirish-qabul qilish dalolatnomasi ilova qilinadi) Ijarachiga vaqtinchalik foydalanish uchun xonalarni (keyingi o'rnlarda "**maydon**" deb ataladi) qo'riqlash hamda yong'inga qarshi signalizatsiya jihozlar bilan birga beradi.

### 2. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI.

#### 2.1. Bankning majburiyatlari:

- a) Maydonga tegishli xonalarni isitish, sovutish, issiq va sovuq suv hamda elektr energiyasi bilan ta'minlash;
- b) Ijarachi aybisiz avariya holati yuz berganda zudlik bilan uning oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko'rish;
- v) Zaruriyat tug'ilganda Ijarachiga ajratilgai maydonni bo'shatib berishi xaqida 2 oy oldin yozma ravishda xabardor qilish.

#### 2.2. Ijarachining majburiyatlari:

- a) Ajratilgan maydonga tegishli xonalardan xizmat maqsadlarida foydalanish;
- b) Xonalarni, asbob-uskunalarni va inventarlarni but saqlash;
- v) Xonalarni ozoda saqlash, barcha sanitariya va yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish;
- g) Elektr energiyasi, issiq va sovuq suvdan tejamli foydalanish;
- d) Maydonning sанtexnik, elektrotexnik va boshqa uskunalarning avariya holatiga kelib qolganligini aniqlagan taqdirda bu haqida zudlik bilan Bankni xabardor qilish;
- ye) Ijarachi Bankning roziligesiz maydonni qayta jihozlash, rekonstruksiya qilish va boshqa kapital ta'mirlash ishlarini bajarmaslik.



**2.3.** Egallab turgan maydonga tegishli xonalar ta'mirlanganda, Ijarachi amalga oshirilgan ishlarning sifatiga moddiy javobgar bo'lib, ta'mirlash ishlari bilan bog'liq bo'lgan nosozliklar uchun mas'uldir.

**2.4.** Vaqtincha foydalanish uchun berilgan xonalarni ta'mirlash ishlarini Ijarachi o'z mablag'lari hisobidan bajaradi.

**2.5.** Ijarachi yong'in xavfsizligi qoidalariga to'liq rioya kilishi lozim. Xonalarda yong'in sodir bo'lganda, Ijarachi o'zining aybi yo'qligini isbot kila olmasa, ko'rilgan zarar uchun Bank oldida javobgardir.

**2.6.** Shartnomma muddatidan oldin bekor qilinganda, Ijarachi 15 kunlik muddat ichida Bankka xonalarni, olingan inventarlari, asbob-uskunalari va bankka tegishli boshqa mulklar, xonalarda amalga oshirilgan o'zgarishlar bilan to'liq ravishda topshirishi lozim. Ijarachi tomonidan o'z mablag'lari hisobidan o'rnatilgan xonaning ajralmas qismi bo'lib qolgan maydonga zarar yetkazmay ajratib olish mumkin bo'lman inventar hamda asbob-uskunalar Bankka o'tadi.

### **3. SHARTNOMANING MUDDATI.**

**3.1.** Shartnomma imzolangan kundan boshlab 1 (bir) yil davomida amalda bo'ladi.

**3.2.** Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish niyati haqida taraflardan biri ikkinchisini bir oy oldin yozma ravishda ogohlantiradi.

**3.3.** Shartnomma amal qilish muddatining tugashiga bir oy qolganda taraflardan biri ushbu shartnomani bekor qilish istagini bildirmasa, shartnomaning muddati keyingi yilga ham uzaytirilgan hisoblanadi.

**3.4.** Ushbu shartnomaga kiritiladigan har bir o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilib, taraflar tomonidan imzolanganidan keyingina haqiqiy hisoblanadi.

**3.5.** Ijarachi egallab turgan maydonga tegishli xonalardan shartnomaga nomuvofik foydalanish holatlari uchraganda Bank mazkur shartnomani belgilangan tartibda muddatidan oldin bekor qilishi mumkin.

### **4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.**

**4.1.** O'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflar "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni, Fuqarolik kodeksi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari hamda ushbu shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladilar.

### **5. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI.**

**5.1.** Ushbu shartnomada yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar taraflarning kelishuvi bilan hal kilinadi. Taraflarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xo'jalik sudi orqali hal qilinadi.

**5.2.** Shartnomada nazarda tutilmagan masalalar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

**5.3.** Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzilib, har bir tarafga bitta nusxadan beriladi.

**5.4.** Bank rekvizitlari va yuridik manzillar o‘zgarganda, taraflar 3 (uch) ish kuni mobaynida bir-birlarini yozma ravishda ogohlantirishlari shart.

## **6. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI.**

### **“BANK”**

**O‘zbekiston Respublikasi Markaziy  
banki Jizzax viloyat  
Bosh boshqarmasi**

Bank nomi: Markaziy bank Jizzax viloyat  
XKKM

H/r \_\_\_\_\_  
MFO: 00018 STIR: 201432857  
IFUT: 64110

telefon: 72-223-97-07, 72-223-97-20  
Jizzax sh. Sh.Rashidov ko‘chasi 16-uy

Bosh boshqarma  
boshlig‘i   
S.X.Alishev

Bosh buxgalter  Sh.E.O’ralov

Bosh yuriskonsult  A.Ibragimov


### **«IJARACHI»**


**Axborotlashtirish Bosh markazi Jizzax  
viloyat bo‘limi**


Bank nomi:Markaziy bank Toshkent shahar  
XKKM

H/r 21596000600447879001  
MFO: 00014 STIR: 201052959  
IFUT: 63110

telefon: 72-226-47-16  
Jizzax sh. Sh.Rashidov ko‘chasi 16-uy

Bo‘lim  
boshlig‘i   
A.I.Umarov





"Tasdiqlayman"

Axborotlashtirish Bosh Markazi  
DUK Jizzax viloyat bo'limi boshlig'i

*Amal A. Umarov*

"5" yanvar 2022 yil

**Topshirish-qabul qilish**  
**DALOLATNOMASI**

Jizzax shahri

"5" yanvar 2022 yil

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Jizzax viloyat Bosh boshqarmasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Axborotlashtirish Bosh Markazi DUK Jizzax viloyat bo'limi o'rtaida tuzilgan 2022 yil 5 yanvardagi 03-sonli shartnomaga asosan Bosh boshqarma ma'muriy binosi quyidagi xizmat xonalarni Axborotlashtirish Bosh markazi DUK Jizzax viloyat bo'limi tomonidan ishlab chiqarish maqsadida foydalanish uchun qabul qildi

t.r	Xona nomi	hajmi	
1	Axborotlashtirish Bosh Markazi asosiy xonasi	75,92	m <sup>2</sup>
2	Axborotlashtirish Bosh Markazi server xonasi	35,28	m <sup>2</sup>
<b>jami</b>		<b>111,20</b>	<b>m<sup>2</sup></b>

Qabul qilish va topshirish vaqtida taraflar tomonidan hech qanday e'tirozlar bo'lmadi.

Buxgalteriya hisobi, hisoboti va  
moliyaviy-iqtisodiy faoliyat boshqarmasi  
boshlig'i-Bosh buxgalteri

*Sh.E.O'ralov*

Ma'muriy xizmat boshlig'i

*N.A.Meliev*

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki  
Axborotlashtirish Bosh Markazi DUK Jizzax viloyat  
bo'limi boshlig'i

*Amal A. Umarov*